

Bank boshqaruvining
2026-yil "29" iyuldagi
57 - sonli
qaroriga 3 -sonli ilova

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Mikroqarz-“Mahalla farovonligi”
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo‘yiladigan talablar	O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, 18 yoshga to‘lgan jismoniy shaxs.
Mikroqarz valyutasi	O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so‘m.
Mikroqarz miqdori	3 mln.so‘mdan - 50.0 mln.so‘mgacha
Mikroqarz maqsadi	Maqsadsiz
Mikroqarz muddati	60 oygacha
Imtiyozli davr	6 oygacha
Taqdim etish shakli	Qarz oluvchining «Asia Alliance Bank» ATBda ochilgan so‘m plastik kartasiga pul o‘tkazish yo‘li orqali;
Foiz stavkasi	Yillik 24%;
Mikroqarz ta‘minoti	Mikroqarzning 125 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda uchinchi shaxs kafilligi yoki likvidli mol-mulk garovi; Bankka aloqador bo‘lgan shaxslarga ta‘minot asosida ajratiladigan kreditlar bo‘yicha ta‘minot mikroqarzning 130 foizi miqdorida qabul qilinadi.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.); B) Kredit qaytarilishini ta‘minlovchi hujjatlar; C) O‘zini o‘zi band qilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma; D) Ijtimoiy soliq to‘layotganligini tasdiqlovchi hujjat (yoki ma‘lumotnoma); E) Mikroqarz ajratish bo‘yicha tegishli hokim yordamchisining tasdiqlangan ijobiy tavsiyanomasi talab etiladi. F) Mustaqil baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash to‘g‘risidagi hisoboti (kredit mol-mulk garovi asosida ajratilganda); G) Bankning mas‘ul xodimlari tomonidan tuzilgan garovga olinadigan mol-mulkning dastlabki monitoring dalolatnomasi mol-mulkning foto sur‘atlari bilan (kredit mol-mulk garovi asosida ajratilganda). Qarz oluvchining daromadlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Daromadlarni aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, ularni tasdiqlovchi hujjatlar qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. Bunda daromadlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi.

Mikroqarzni qaytarish tartibi	Annuitet yoki differensial to'lov usulida.
Qo'shimcha shartlar	• “Asia Alliance Bank” ATB Amaliyot Boshqarmasi/MBXOlar va uning bo‘linma (BXO)lari joylashgan hududda istiqomat qiluvchi fuqarolarga tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratiladi; • Qarz oluvchining bank va boshqa banklarda mavjud barcha mikroqarz mablag‘lari qoldig‘i hisobga olingan holda jami qarzдорlik qoldig‘i 100 mln. so‘mdan oshmasligi lozim; • Muddati o‘tgan asosiy qarz uchun oshirilgan foiz stavkasi kredit bo‘yicha foiz stavkasining 1,5 barobarida belgilanadi; • Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi/Kafilning qarz yuki ko‘rsatkichi 50 foizdan oshmasligi lozim; • Qarzning daromadga nisbati ko‘rsatkichi 8 barobardan oshmasligi lozim; • Mikroqarz kafillik shartlari asosida taqdim etilganda, scoringdan o‘tish bali 490 ball etib belgilansin; • Kredit byurolaridan olingan so‘nggi 3 yil muddatdagi kredit tarixi ijobiy bo‘lishi lozim. Bunda, 30+ 10 tagacha yo‘l qo‘yiladi; 60+ 5 tagacha yo‘l qo‘yiladi; 90+ yo‘l qo‘yilmaydi. * Ushbu shartlar asosida kredit ajratish bo‘yicha qaror qilish vakolati Kreditlarni ma’qullash boshqarmasi Jismoniy shaxslar anderraytingi bo‘limiga beriladi.